TASVIRIY SAN’ATDA NATYURMORT JANRINI TASVIRLASHDA KOMPOZITSIYANING O‘RNI VA AHAMIYATI

Yusupova Shoxista Alimjanovna
Guliston davlat pedagogika instituti, “Tarix va san’atshunoslik” kafedrasi katta o‘qituvchisi
Raxmonberdiyeva Oygul Rayimjonovna
7-24 Tasviriy san’at mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya - San’at iborasini asosiy mazmun mohiyati. Natyurmort janrining paydo bo‘lishi va ijod qigan rassomlar, kompozitsiyasi haqida tushshuncha, uning tasviriy san’atda o‘rganishda ma’lumotlar. Narsa-buyumlarning uslubiy jihatdan bosqichma-bosqich tasvirlash usullari haqida aytib o‘tilgan. Ijodiy ishning yaratilishida muhum va asosiy qonuniyatlar misol keltirib berilgan.

Kalit so‘zlar: Natyurmort, tasviriy san’at, kompozitsiya, qalamtasvir, rangtasvir, grafika, geometrik, ritm, eskiz, professional, plener, interer.

San’at - bu izlanishdir, aniqrog‘i komil, yetuk shakl, tabiiy rang, ritm va koloritni borliqdan izlab, abadiylikka, shu qatori dunyoni va insonni bilish demakdir. Bu ibora o‘z ichiga hozirgi kunga qadar yechimi topilmagan va go‘zallikning noyob va hayratga soluvchi taraflarini aks ettirgan tushuncha ham hisoblanadi. Asarini yaratish jarayonini ko‘pincha inson dunyoga kelishi bilan qiyoslashadi. San’at qonunlarini asosi bu tabiat qonunidir. Tabiatda oddiy jarayon bo‘lgan, lekin hozirgacha hayratga soladigan hodisa bo‘lib, insoniyatnihg dunyoga kelishi, ob-havo o‘zgarishi, gullarning ochilishi, fasllar almashishida san’at asarini yaratilishi-bularning barchasi bir tizimli jarayon hisoblanadi. Yuqoridagi ko‘rsatib o‘tilgan hodisalar inson qalbida his-tuyg‘ularni uyg‘otishga qodirdir. Ular - ilhomlanish, zavqlanish, ijodiy parvoz, ko‘tarinki ruhiyat va dunyoqarashni kengaytiradi.

San’at so‘zining lug‘aviy ma’nosiga keladigan bo‘lsak, “San’at” - ijtimoiy ong va inson faoliyatining o‘ziga hos shakli hisoblanadi. San’at qadimiy tarixga ega bo‘lib, u jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida mehnat jarayoni bilan, kishilar ijtimoiy faoliyatining rivojlanishi bilan bog‘liq holda vujudga kela boshlagan.

Tasviriy san’atning muhim xususiyatlaridan biri bu-insonlarga yangi bilim tasavvur va tushunchalar berib, ijodiy yuksalishga boshlaydi, ranglar hayotdagi har bir holatni ko‘rish xarakterini bilibgina qolmay, uning sir-u asrorlarini ifodalab beruvchi ishonchli vosita hisoblanadi.

Ijodkorlarimizning haqqoniy va hayotbaxsh erkin g‘oyalar bilan sug‘orilgan asarlari ijodkor insonlar uchun shodlik va ilhom manbai hamda axloqiy tarbiya vositasi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Badiiy ishlangan rasm va suratlar o‘quvchilarni tevarak-atrofdagi hayot bilan tanishtirib, tabiatni, insonni va uning mehnatini sevishga o‘rgatadi, asrab-avaylashga, o‘z imkoniyatiga qarab, go‘zalliklar yaratishda ishtirok etish orzusini uyg‘otadi.

O‘qituvchi rasm darsini xilma-xil metodlar va san’atga oid suhbatlar o‘tkazish orqali, ijodkorlar tushuna oladigan badiiy materiallar ko‘rgazmasini tashkil etish, rassomlar va san’at arboblari bilan uchrashuvlar o‘tkazish orqali qiziqarli olib borilsa, bunday mashg‘ulotlar talabalarning qiziqarli va sevimli darsiga aylanishi imkoniyati bo‘ladi.

Badiiy materiallar yuzasidan ish olib borilganda bolalarda kuzatuvchanlik o‘sadi, ular tasviriy san’at janrlari to‘g‘risida, ranglarning bir-biriga uyg‘unligi to‘g‘risida, har xil ranglar to‘g‘risida boshlang‘ich tushunchaga ega bo‘ladilar, o‘tmishdagi va hozirgi zamon atoqli rassomlarining nomlarini bilib oladilar, ularning ijodi bilan tegishlicha tanishadilar. [1.310]

Tasviriy san’at o‘quv programmada bilim va malaka berishda soddadan murakkabga qarab olib boriladi. Ijodkor malakasini oshib borishi bilan rasmi chiziladigan predmetlar yoki postonovkalar murakkablashib boriladi. Rasm chizishga qiziqib, uni o‘rganishda astoydil kirishayotgan har bir ijodkor shoshilmay, asarni o‘ziga qarab rasmni sabr-matonat bilan mustaxkam egallashi lozim bo‘ladi.

Natyurmort - kundalik hayotda ishlatiladigan buyumlar, mevalar, sabzavotlar, gullar va boshqa buyumlarni ifodalaydigan tasviriy san’at janridir. Natyurmort chizayotgan rassomning vazifasi shundan iboratki, insonni o‘rab turgan predmetlar, ularning hajmdor va moddiy mohiyatini ranglar yordamida yetkazib berish, va tasvirlanayotgan narsa-buyumlarga o‘z munosabatini bildirish demakdir. Ta’lim davrida rangtasvir mahoratini shakllantirish va unga sayqal berishda natyurmort chizishning o‘rni beqiyosdir. Ijodkor rassom buning ko‘magida ranglar uyg‘unligi, majoziy, ramziy mazmuni qonunlarini o‘rganadi, shakllarni modellashtirish bo‘yicha malaka va ko‘nikma oladi.

Natyurmort – tasviriy san’atning o‘ziga xos mustaqil janridir “Natyurmort” (nature morte) fransuzcha so‘z bo‘lib, “jonli tabiat” degan ma’noni anglatadi va unda ko‘pincha mehnat qurollari sabzavot va mevalar, gullar, parranda va mayda hayvonlar tasvirlanadi, ya’ni natyurmort san’atda insonning maishiy hayotini aks ettirish bilan hosil qilinadi. Bu janr XVII asrning boshlarida Gollandiyada paydo bo‘ldi. Ko‘plab mamlakatlarda tarqalib, XVIII asrning o‘rtasida tasviriy san’atda keng rivoj topgan mustaqil janr hisoblanib kelmoqda.

O‘zbekiston tasviriy san’atida rassomlardan N.Kashina, Z.Kavalyovskaya, YU.Elizarov, R.Axmedov, G‘.Abduraxmonov, N.Ten, A.YUnusov, A.Mirzayev kabi ko‘plab natyurmort janrining ustalari va umidli yosh rassomlar o‘lkamiz noz-ne’matlarini o‘zlarining natyurmortlarida, mohirona ifodalaganlar. Natyurmort tasviriy san’atning alohida janri bo‘lib hisoblanadi. [2;191]

Ijodkor yaratayotgan har qanday san’at asarining negizini kompozitsiya tashkil etadi “Kompozitsiya” (lot. Compositio) – tuzish, ijod qilish demakdir. Asar tuzilishida qismlarning asar g‘oyasiga muvofiq joylatirilishini va o‘zaro munosabatini anglatadi. Tasviriy san’atda kompozitsiyaning simmetriya, assimetriya, muvozanat va ritm, turg‘unlik (statika) va harakat (dinamika), ikkinchi darajali narsalarga (asosiyga) bo‘ysunishi, ko‘rish markazi va ko‘pincha unga mos keladigan kompozitsion markazni bo‘rttirib ko‘rsatish kabi qoidalari mavjud. Rasm chizuvchi narsalar to‘plamiga (natyurmort) ma’lum bir ko‘rish nuqtasidan qaraydi va ko‘z qarashiga qat’iy ravishda kuzatish perspektiv qonuniyatining o‘zaro bog‘liqligi bilan namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, naturadagi narsalar o‘z yorig‘ligi va bir-biriga bog‘langan bo‘lib, soya-yorug‘lik, yarim, tushuvchi, xususiy soya, blik, reflekslar taqdimoti ma’lum bir tartibda bo‘ladi. Agar ko‘rish nuqtasi o‘zgartirilsa, naturaning o‘zaro joylashuvi va yoritilganligi yangi ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Ko‘rish nuqtasi yorug‘likka qarama-qarshi bo‘lganda siluyet tarzida ham uchratish mumkin.

Natyurmort kompozitsiyasini qurishida dastlab, qog‘oz yuzasidan tasvirlanayotgan narsalarni puxta joylashuvi, qog‘oz o‘lchamiga nisbatan tasvirning katta-kichikligini aniqlashdan iborat bo‘ladi. Har bir natura mua’yan o‘lchamdagi qog‘ozni talab qiladi.

Yaratilayotgan tasvirlar ma’lum o‘lcham tekisligida “tiqilinch” yohud juda kichik joylashgan tasvirlar qog‘oz tekisligida aniq ko‘rinmaydi. Tomoshabinning nazari ana shu markazga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim, o‘lchamni aniqlab olgach, asosiy ishni boshlashdan oldin kichik

o‘lchamdagi qog‘oz bo‘lagi yoki burchagida bo‘lajak natura qo‘yilmasini xomaki variantlari tayyorlanadi so‘ng, asosiy ishga o‘tish maqsadida muvofiq bo‘ladi. Dastlab oddiy natura qo‘yilmalaridan gipsli geometrik shakllardan, keyin esa geometrik shakllarga yaqin bo‘lgan maishiy buyumlardan tuzilgan natyurmortlarni ishlash, so‘ngra, turli rangdagi materialdagi buyumlardan tuzilgan qo‘yilmalarni plener sharoitida va intererda joylashtirilgan natyurmortlar tasvirlash mumkin. [3.47]

Ijod davomida tasviriy san’atda nafaqat nazariy bilimlarni mustaxkamlab, balki amaliy jihatdan ham yuqori tajribaga ega bo‘lishi lozim bo‘ladi. Rassomlar har qanday buyum va narsaning shartli rangini ko‘ra bilishi va mohirona tasvirlay olishi kerak, shundagina tomoshabin asarning haqiqiy borliqdagi ko‘rinishini tomosha qilishga muyassar bo‘ladi, ijodiy natyurmort tuzishda asosan hayotiy voqealarga tayaniladi. Bunday holda chiroyli va qiziqarli kompozitsiya tuzishda kundalik turmushda qo‘llaniladigan narsa va buyumlarni olish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Natyurmort kompozitsiyasida asosiy e’tiborni o‘ziga jalb etuvchi buyum bu kompozitsiyaning markazi hisoblanadi. Asardagi qolgan tasvirlari esa unga tobe bo‘lib xizmat qiladi. Rang bilan ishlash jarayonida shakllarning xarkateriga aniqlik kiritib borish kerak bo‘ladi. Kompozitsiyasini to‘g‘ri topish maqsadida alohida kichik o‘lchamda xomaki tarzda chizib ko‘riladi. Rasm kompozitsiyasi topilgandan so‘ng, asosiy ishga o‘tiladi. Qo‘yilmani chizganda tasvirdagi hamma buyumlarni bir yo‘la tasvirlash lozim. Aks holda, rasmda buyumning o‘lchami kattaroq, ikkinchisiniki esa kichikroq bo‘lib, rasm kompozitsiyasi buziladi. Shuning uchun qo‘yilmadagi barcha buyumlarning umumiy balandligi va uni qog‘ozga yordamchi chiziqlar bilan belgilab komponovka olinadi. Keyingi bosqichga naturadagi har bir buyumning o‘lchov jihatdan, soya va yorug‘larning o‘zaro farqi, oralaridagi masofa, ranglarni ko‘z bilan chamalab aniqlashga o‘tiladi.

Kompozitsiyani tasvirlash jarayonida ishni boshidan oxirigacha, albatta metodik ketma-ketlikka rioya qilish lozim bo‘ladi. Tasviriy san’atda natyurmortning qalamtasviri qiyinchilik tug‘dirmaydi, ammo rangtasvirlarda biroz murakkab jaroyon kechishi mumkin.

Natyurmort kompozitsiyasini shunday tuzish kerakki, uni qaysi nuqtadan kuzatganda ham u yaxshi bir butun ko‘rinishiga erishmoq zarur. Natural nisbatan qiziqarli ko‘rish nuqtasini tanlab olgach, qog‘oz varag‘i qanday o‘lchamda bo‘lishini aniqlash zarur. Qog‘oz varag‘ida ifodalanadigan natyurmort qo‘yilmasini naturadan to‘g‘ri aniqlab tasvirlay olish kerak.

Natyurmort kompozitsiyasida buyum va narsalarning aniq rangini tasvirlash uchun rang munosabatlarida qat’iy amal qilish kerak. Xulosa qilib aytganda, tinmay ijod, o‘z ustida ishlash, mehnat, yangi texnikada ishlash, o‘rganish va izlanish jarayonida hamda astoydil amaliy mashqlarni bajarish orqali tasviriy san’atda kompozitsiyani etarli darajada o‘rganish mumkin bo‘ladi.

Kundalik xayotimizda juda ko‘p voqea va predmet – hodisalarning rasm tasvirlarini uchratamiz, ulardan ayrimlari bizga yoqadi yoki yoqmaydi. Buning boisi – shu rasm hamda tasvirlarni yaratishda kompozitsiyaga qay darajada e’tibor berilganligidadir.

Ma’lumki, rasm va tasvirlarning mazmuni, maqsadi va vazifasiga ko‘ra, ularning kompozitsion tasviri yaratiladi.Kompozitsiyaning to‘liq, mazmunli, ishonchli chiqishi narsaning o‘ziga qarab, rasm chizishda muhim ahamiyatga ega. Bu asosan naturaning shakli, tuzilishi, rangi, tuzish holati, yorug‘- soyalarning tushishi, u rasm chizuvchidan qancha masofada turganini aniq belgilash va uni shu holda ifoda etishiga bog‘liq bo‘ladi.

Shu boisdan, natura elementlari rasm kompozitsiyasi bo‘yicha shunday taqsimlanmog‘i kerakki, uning har biri rasm ifodasida o‘z o‘rnida, turish holatiga, bir-biriga bog‘lanishiga ko‘ra, rasm kompozitsiyasini chiroyli, jonli, harakatchan va tomoshabinga yoqimli bo‘lishiga yordam berishi zarurdir.

Narsaning o‘ziga qarab, rasm chizishda kompozitsiyaning asosiy talabi – natura elmentlarining bir butunligini tashkil etish, shuningdek, shakl, rang xamda ularning uyg‘unligi, mustaqilligi va mazmunini saqlashdir.

Shu bois narsaning o‘ziga qarab, rasm chizishdagi muhim vaziyat rasmi chiziladigan natura yoki natyurmortni rasm chizish postanovkasi holatiga keltirib olishdir. Natyurmort yaratishda asosiy e’tiborni rasmi chiziladigan narsalar natyurmort mazmunida javob berishiga qaratish lozim

bo‘ladi. So‘ngra undagi elementlarning joylashishi, holatlari, rang va tuzilishi, shakli ma’lum bir tematik kompozitsiya xarakterini ifodalay olishi zarur. Natyurmort tuzish uchun postonovkaning katta-kichikligi nazarda tutilgan holda, bir-biriga mos keladigan, bir mavzu syujetiga javob beradigan, rang jihatidan ham bir-birini to‘ldiradigan, bir-biridan ajrata olish mumkin bo‘lgan rangdagi predmetlar tanlanadi. So‘ng ularni I-II-III plan bo‘yicha va ranglari, shakllariga ko‘ra ma’lum bir kompozitsion talabda qo‘yib tasvirlanadi.

Rangtasvirda eng asosiysi shakllarning aniqligi, oddiyligi va chuqurligi hisoblanadi. Natyurmort kompozitsiyasida narsalarning old va orqa ko‘rinishlari orasidagi kenglikni ko‘rsatishga ham e’tibor berish lozim. Agarda uzoqda turgan narsa-buyumlarning ranglarini yengilroq va xiraroq olinmasa, oldi qator ya’ni planga chiqib ketadi. Ijodkor rassom qalamtasvirni chuqur o‘zlashtirib olgandagina rangtasvirni mukammal o‘rganishi mumkin bo‘ladi. Professional rassomlarning mahorati shundan iboratki, ular rasmni yengil va erkin chizib ifoda etadilar.

Rangtasvir kompozitsiyasi mashg‘ulotlari ikki yo‘nalishda o‘tkaziladi:

1. Tevarak –atrofdan olingan mavzular ko‘rinishida kompozitsiya ishlash.
2. Adabiy asarlarning mazmuni asosida kompozitsiya ishlash.

Kompozitsiyada asosiy talablardan biri yaxlitlik, simmetriya va ritm hisoblanadi. Asarning yaxlitligiga erishishda ortiqcha qismlarni olib tashlash, kontrastni yumshatish, yaratilayotgan g‘oyani bo‘rttirish hisoblanadi. Natyurmort kompozitsiyasida bir mavzu turli xil mazmunda yoritilishi mumkin. Kompozitsiya chizishda asarning mazmuni darrovgina topilmaydi, balki o‘ylangan mavzu bo‘yicha va to‘liq ochib berish imkonini beruvchi kompozitsion yechim izlanadi. Rassomning ko‘nglidagidek aniq, tushunarli ifoda topilmaguncha juda ko‘plab etyud va qoralamalar qilinishiga to‘g‘ri keladi. Mazmun topilgach, rassom kompozitsiya eskizi ustida tinimsiz, zahmatli ish boshlaydi. Eskiz kartina loyihasi hisoblanib, kartinaning ustida ishlashning birinchi bosqichi hisoblanadi.

Albatta yaratilayotgan asarda kompozitsiyaning hamma qonuniyatlari muhim va ikkinchi darajada turuvchi qismlar asosiy markazga bo‘ysunadi. Kompozitsiyaning markazi esa asosiy harakat bilan unda qatnashuvchi muhum mavzularni o‘ziga bog‘laydi. Asardagi kompozitsion markaz o‘ziga diqqatni jalb etishi lozim. Markaz rang, yorug‘lik, tasvirni yiriklashtirish, kontrast va boshqa vositalari bilan ajaratiladi. Kompozitsiya markazi faqat natyurmort asarlaridagina emas, balki grafika, haykaltaroshlik, amaliy va dekorativ san’at, me’morchilikda ham ajratiladi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqgan holda, ijodkor asarni yaratish jarayonida tasviriy san’atning qaysi janrini yaratilishidan qat’iy nazar, kompozitsiya muhum o‘rin tutadi. Yaratilayorgan asar tomoshabin diqqatini jalb etishida kompozitsiya qonuniyatlari o‘z vazifalarini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S. Abdirasilov N. Tolipov Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi Toshkent Aloqachi, 2007. [1.310]

2. S.Abdirasilov, N.Tolipov, N.Oripova - Rangtasvir. Toshkent –“O‘zbekiston”-2006. [2;191]

3. Turdaliyev A. Kompozitsiya. O‘quv qo‘llanma. T:, 2003. [3.47]

4. B.N.Oripov – Tasviriy san’at va uni o‘qitish metodikasi “Ilm ziyo” Toshkent – 2012

5. Юсупова, Ш. А., & Жумабоев, Н. П. (2021). ТАСВИРИЙ САНЪАТ ДАРСЛАРИ ОРҚАЛИ ЎҚУВЧИЛАРНИ ИЖОДКОРЛИККА ЎРГАТИШ. Science and Education, 2(2), 460-464.

6. Shoxista Y. TASVIRIY SAN’AT MASHG‘ULOTLARIDA IJODIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH USULLARI //Uz-Conferences. – 2023. – T. 1. – №. 1. – C. 768-772.

7. Юсупова Ш. TASVIRIY SAN’AT TO‘GARAK MASHG‘ULOTLARIDA QO‘YILADIGAN ZAMONAVIY PEDAGOGIK TALABLAR //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 5. – С. 267-273.

8. Юсупова Ш. TO‘GARAK MASHG‘ULOTLARI ORQALI TASVIRIY SAN’AT FANIGA ASOSLANGAN XOLDA O‘QUVCHILAR IJODIY QOBILIYATINI

RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 12/2.